

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 309-319 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>



IQTISODIYOTDA MOLIYAVIY MENEJMENTNING O'RNI

Maqsudov Bunyod Abdusamatovich

TDIU, Bank ishi kafedrasi katta o'qituvchisi

Email: maqsudov_bunyodjon@tfi.uz

Akramova Aziza Abduvohidovna

TDIU, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Email: azizaakromova272@gmail.com

ORCID:0009-0006-9345-5507

Annotatsiya: Moliyaviy menejmentning iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish muammosi iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiyani pasaytirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu muammoning samarali yechimi moliyaviy menejmentning raqobatbardoshliligi va xavfsizligi, barqarorligi va likvidligi, investorlar uchun jalbdorligi va risksizlik darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Ushbu maqolada moliyaviy menejmentni tashkil etishning mexanizmi va uslubiy asoslari ochib berilgan.

Moliyaviy menejment moliyaviy mexanizmning asosiy vositalari va usullari yordamida moliyaviy boshqaruv maqsadlarini, bu maqsadlarning belgilashning o'ziga xos jihatlarini subyektda moliyaviy resurslarining shakllantirilishi, taqsimlanishi va bu vositalardan samarali foydalanilishini hamda ularning pul mablag'larining aylanishidagi tashkiliy tomonlarini aks ettiradi. Tadbirkorlik moliyaviy menejmentida shuningdek, boshqaruv strategiyasi va taktikasiga katta e'tibor beriladi. Subyektning moliyaviy strategiyasida qo'yilgan bosh maqsadlarga erishish borasidagi sa'y-harakatlar davomida umumiy yo'nalishlardan va vositalardan samarali foydalanish yo'llari belgilanadi va amalga oshiriladi. Bu maqsadlarga erishish uchun ularga asoslangan holda yangi yo'nalishdagi maqsadlar ishlab chiqiladi. Moliyaviy taktikada esa, belgilangan sharoitda kutilayotgan yutuqlarga erishish uchun aniq usullarni tanlash va ulardan samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqiladi. Moliyaviy menejment boshqaruv tizimi sifatida ikki asosiy tizimdan: boshqariluvchi yoki boshqaruv obyekti tizimi va boshqaruvchi yoki boshqaruv suyektlaridan iborat bo'ladi. Moliyaviy menejmentda boshqaruv obyektiga subyektning jami pul oqimlarining harakati, qiymat aylanishi, moliyaviy resurslarining harakati, hamda moliyaviy faoliyati jarayonlarida ularning sarflanishi kiradi. Moliyaviy menejmentning boshqaruv subyekti esa, alohida bir guruh moliya menejerlarining guruhini moliyaviy apparat va subyekt boshqaruvchilarini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy o'sish, modernizatsiyalash, raqobatbardoshlik, moliyaviy risklarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar, binominal model, optimallashtirish va likvidlilikni ta'minlash.

THE ROLE OF FINANCIAL MANAGEMENT IN THE ECONOMY

Maqsudov Bunyod Abdusamatovich

Tashkent State University of Economics. Phd

Email: maqsudov_bunyodjon@tfi.uz

Akramova Aziza Abduvohidovna

Student of Tashkent State University of Economics

Email: azizaakromova272@gmail.com

ORCID:0009-0006-9345-5507

Abstract: The problem of increasing the importance of financial management in the economy arises from the need to attract investments in order to modernize the economy, ensure stable industrial and economic growth, reduce inflation. The effective solution to this problem is inextricably linked with the competitiveness and security of financial management, stability and liquidity, ensuring the level of attractiveness and risklessness for investors. This article reveals the mechanism and methodological foundations of the organization of financial management. Financial management reflects the goals of financial management with the help of the main tools and methods of the financial mechanism, the specific aspects of setting these goals, the formation, distribution and effective use of financial resources in the subject, as well as their organizational aspects in the circulation of funds. Financial management also pays great attention to management strategy and tactics. During efforts to achieve the main goals set in the entity's financial strategy, ways of effective use of common directions and tools are defined and implemented. To achieve these goals, based on them, goals in a new direction are developed. In financial tactics, ways to choose specific methods and use them effectively are developed to achieve the expected achievements under the specified conditions. Financial management as a management system consists of two main systems: managed or management object system and manager or management entities. In financial management, the object of management includes the movement of the subject's total cash flows, value circulation, movement of financial resources, and their consumption in the processes of financial activity. The management entity of financial management includes a separate group of financial managers, financial apparatus and entity managers.

Keywords: economic growth, modernization, competitiveness, financial risk management, securities, binominal model, optimization and liquidity assurance.

Kirish.

Hozirgi kunda moliyaviy menejment tushunchasining mohiyatini yoritishda iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar bildirib o'tilmoqda. Umuman olganda,

moliyaviy menejment tushunchasiga rus iqtisodchi olimlari, qolaversa MDH davlatlariga kiruvchi qator davlatlari olimlarining qarashlari bilan, G'arbiy Evropa va AQSh olimlarining qarashlari nisbatan farqlanadi. Rus iqtisodchi olimi I.Y.Lukasevichning aytganidek moliyaviy menejment 4ta asosiy rejalashtirish mexanizmini o'z ichiga oladi.

Rejalashtirish mexanizmi iqtisodiyotni boshqarishning turli bo'g'inlarida, jumladan, korxonalami boshqarishda rejalami ishlab chiqish usullari majmuasi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'z faoliyatini rejalashtirishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Biroq bu rejalashtirishning tekshirib ko'rilgan va foydali usullaridan voz kechishni anglatmaydi. Bugungi sharoitda ham korxonalar faoliyatini rejalashtirish texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar, progressiv norma va normativlar, iqtisodiy tahlil, muqobil variantlami tanlashga asoslanadi.

Natijalarni baholash, belgilangan maqsadlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, axborotlarni tahlil qilish:

1. Tashqi va ichki muhitning tahlili
2. Strategik rejalashtirish
3. Taktik rejalashtirish
4. Joriy rejalashtirish

Bundan ko'rishimiz mumkinki yuqorida ko'rsatilgan moliyaviy menejment mexanizmi har bir sohaning asosiy elementi hisoblanadi. Negaki bu ketma – ketlik (joriy, taktik va strategik rejalashtirish) korxonaning rivojlanishini ta'minlaydi. Moliyaviy menejmentda strategik rejalashtirishlarsiz uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishib bo'lmaydi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar Djeyms K.Van Xom va Djon M.Vaxovich o'zlarining iqtisodiy asarlarida esa, moliyaviy menejment aniq bir maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan aktivlarni moliyalashtirish va boshqarish bo'yicha qilingan hatti harakatlarning majmuidan iborat deb ta'kidlaydilar va quyidagicha ta'rif beradilar: moliyaviy menejment (financial management) aniq bir maqsadlarni realizatsiyasiga yo'naltirilgan aktivlarni moliyalashtirish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir. Ularning fikriga ko'ra firma va kompaniyalarning maqsadlari turli xil bo'lishiga qaramay, ulardan asosiysi firma va kompaniya egalarining moliyaviy holatini maksimallashtirishdir[1].

Tadqiqot metodologiyasi.

Moliyaviy menejmentning funksiyalari

Moliyaviy menejmentning tub mohiyati uning amalga oshirayotgan funksiyalari orqali namoyon boladi. Umuman olganda, moliyaviy menejment amalga oshiradigan funksiyalarni quyidagi ikki asosiy guruhga ajratish mumkin (1-rasm):

- > boshqaruv subyektining funksiyalari;
- > maxsus funksiyalar.

Moliyaviy menejmentning funksiyalari

Boshqaruv subyektlikning funksiyalari	Maxsus funksiyalar
Tashkil etish	Aktivlarni boshqarish
Tahlil	Kapitalni boshqarish
Rejalashtirish	Investitsiyalarni boshqarish
Rag'batlantirish (motivatsiya)	Pul oqimlarini boshqarish
Nazorat	Moliyaviy risklarni boshqarish

1-rasm. Moliyaviy menejmentning funksiyalari

Bozor munosabatlari sharoitida mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'iy nazar korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish eng avvalo tizilmada boshqaruv rolini oshirishdan boshlanadi. Chunki, boshqaruv vositasida korxona o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal qiladi va istiqboldagi strategik maqsadlarni amalgalashiradi. Umuman olganda, yuqoridagi funksiyalarning birinchisida har qanday boshqaruv shaklining umumiy ko'rinishi tavsiflanadi, uning tarkibiga asosan quyidagilar kiradi:

- Tashkil etish;
- Tahlil;
- Rejalashtirish;
- Rag'batlantirish (motivatsiya);
- Nazorat.

Moliyaviy menejmentning keyingi guruh funksiyalari uning alohida boshqaruv faoliyati xususiyatlarini tasniflaydi. Uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- Aktivlarni boshqarish;
- Kapitalni boshqarish;
- Investitsiyalarni boshqarish;
- Pul oqimlarini boshqarish;

Moliyaviy risklarni boshqarish.

Aktivlarni boshqarish. Korxonalar xo'jalik faoliyatining hajmi va amalgalashirayotgan operatsiyalar ko'lidan kelib chiqqan holda uning turli xildagi aktivlarga bo'lgan talabini aniq o'rganish. korxona aktivlaridan samarali foydalangan holda ularning tarkibini optimallashtirish va likvidlilagini ta'minlash, amortizatsiya hisoblashning eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish va amalgalashirish, ularni moliyalashtirishni optimal yo'llari va manbalarini tanlash, aktivlarni boshqarish funksiyasining mohiyatini ifodalaydi.

Kapitalni boshqarish. Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni amalgaga oshirishda moliyaviy resurslarni optimal yo'llarini izlab topish va ulardan samarali foydalanishi talab etiladi. Korxonaning hozirgi va kelgusidagi faoliyat turlarini amalgaga oshirishda foydalaniladigan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, kapitalni boshqarish funksiyasining mohiyatini ifodalaydi. Bu asosan korxonaning kapitalga bo'lgan jami talabini o'rganish va ulardan samarali foydalanish, moliyalashtirishning eng maqbul yo'llari va manbalarini aniqlash, qayta moliyalashtirish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalgaga oshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Investitsiyalarni boshqarish. Korxonalarni moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishlari va ularni faoliyatlarini rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liqdir. Investitsiyalarni boshqarish funksiyasi, korxonaning taktik va strategik maqsadlarini amalgaga oshirishga yo'naltirilgan investitsiya siyosatini ishlab chiqishdan iborat. Bunda asosan, korxonaning faoliyat turi va moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olgan holda unga ko'proq moliyaviy manfaat keltiruvchi va eng maqbulini tanlash maqsadida, investitsion loyihalaming samaradorligi va qaytimini baholash, kapital qo'yilmalar byudjetini ishlab chiqish, qimmatli qog'ozlar portfelini tashkil qilish va boshqarish va boshqalar amalgaga oshiriladi.

Pul oqimlarini boshqarish. Korxonalarning joriy va kundalik faoliyatini amalgaga oshirishda pul oqimlarini boshqarish muhim rol o'ynaydi. Korxonalarning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligi, likvidliligi va to'lovga qobliligi hamda boshqa iqlisodiy ko'rsatkichlarning yuqori ekanligi ko'p jihatdan ushbu funksiyaning to 'g'ri va oqilona amalgaga oshirilishiga bogliqdir.

Moliyaviy menejmentning asosiy talabi moliyaviy resurslarni boshqarish tizimi sifatida, asosiy moliyaviy tushunchani ishlab chiqish. U quyidagilarni aniqlashdan iborat:

Belgilangan maqsadga erishish
uchun moliyaviy
rivojlanishstrategiyasi

Korxonaning pul aylanmasini
samarali boshqarish yo'llari

Belgilangan nisbatlarda pul
mablag'lari fondini
shakllantirish

Moliyaviy resurslardan
maqsadli foydalanish

2- rasm. Moliyaviy menejment tushunchalari

Tahlil va natijalar.

Moliyaviy menejment pul mablag'lari, moliyaviy resurslarni ularning shakllanishi va harakatlanishi, taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, shuningdek ulardan foydalanish jarayonida boshqarilishi tushuniladi. Bu maqsadli ishlab chiqarish xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaсидagi o'zaro hisob-kitoblar, pul oqimlari, pul muomalasi, pul mablag'laridan maqsadlarda foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Ushbu harakatlar iqtisodiyotda eng optimal yakuniy natijasini olish qaratilgan. Menejment, shu jumladan moliyaviy menejment ma'lum bozor sharoitlariga asoslangan boshqaruva qarorlarining dinamikasi bilan tavsiflanadi. Menejerga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu iqtisodiy vaziyatni tez va to'g'ri baholash, aniq sharoitlarda maqbul bo'lgan yechimni topish qobiliyatidir.

Zamonaviy moliyaviy boshqaruva tashkiloti quyidagi xususiyatlarga ega:

**Zamonaviy
moliyaviy
boshqaruva**

Umuman, ishlab chiqarish va biznes samaradorligini oshirish uchun barqaror intilish;

Korxonaning butun bozorida yoki uning bo'linmalarida ishlashning yakuniy natijalari uchun mas'ul bo'lganlar uchun qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi keng iqtisodiy mustaqillik;

Bozor konyunkturasiga (shu jumladan transport xizmatlari), tashqi muhit o'zgarishiga qarab maqsadlar va dasturlarni so'zlash imkoniyati;

Korxonaning rejalashtirilgan yakuniy natijasiga erishishga e'tibor qaratish;

Boshqaruva qarorlarini qabul qilishda ko'p tomonlama hisob-kitoblar uchun zamonaviy axborot bazasidan foydalanish;

Korxonaning butun boshqaruvtizimida moliyaviy boshqaruvni birinchi o'ringa qo'yish;

Korxonaning barcha xodimlarini uni boshqarishga jalb qilish;

O'zgarishlarni oldindan bilish, moslashuvchan yechimlar asosida boshqaruvni amalga oshirish;

Har bir boshqaruva qarorini chuqur iqtisodiy tahlil qilish;

Xavflarni oqilona qabul qilish va xavflarni boshqarish qobiliyati

3-rasm. Zamonaviy moliyaviy boshqaruva xususiyatlari

Menejment umuman olganda ishchilarining faoliyati shakllanadigan va boshqariladigan jarayon. Bu menejerning korxona xodimlari bilan birgalikda ishlash jarayoniga asoslangan. Bozor iqtisodiyoti shakllanishining zamonaviy sharoitida menejer

vazifasini bajaruvchi guruh qarorlarini qabul qilish uchun shart-sharoit yaratganda menejmentning yangi shakli shakllanadi[3].

Moliyaviy boshqaruv asosiy printsiplar asosida tashkil etiladi. Tadbirkorlik faoliyatining turli sohalariga pul resurslarini avanslashdan kelib chiqadigan xavfni bartaraf etish bilan foyda olish imkoniyatlarini tenglashtirish. Moliyaviy boshqaruvning umumiyligi tamoyillari:

- ❖ iqtisodiy faoliyatda rejali va tizimli;
- ❖ moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanish, strategik tashkilot;
- ❖ yordamchi faoliyatni diversifikatsiya qilish, ko'p tomonlama rivojlantirish.

Moliyaviy resurslarni rejalashtirish - bu maqsadlarni shakllantirish, ularga erishish uchun ustuvorliklar, vositalar va usullarni belgilash jarayonidir. Reja-rejalashtirish natijasi, iqtisodiy muhitning konyunkturaviy prognози va belgilangan maqsadlar asosida yaratilgan harakat modeli. Moliyaviy boshqaruvdagi reja indikativ bo'lib, axborot yo'nalishi hisoblanadi. Rejalashtirishdan foydalanishda firma rahbariyatining boshqaruv vazifasi iqtisodiy faoliyatdan aniqlik va xavf darajasini kamaytirish va tanlangan ustuvor yo'nalishlarda resurslarning konsentratsiyasini ta'minlashdir.

Moliyaviy menejment mexanizmi va funksiyalari

Moliyaviy boshqaruvning mohiyati u bajaradigan vazifalarda namoyon bo'ladi. Reproduktiv, tarqatish, nazorat qilish funktsiyalari mavjud. Reproduktiv funksiya korxonaning kapital aylanishining barcha bosqichlarida moddiy va moliyaviy resurslar harakati o'rtaqidagi muvozanatni ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Korxonaning strategiyasini ishlab chiqarish, katta iqtisodiy ko'rsatkichlar uchun moliyaviy resurslarni to'g'ri foydalanishga yordam beradi. Moliyaviy menejmentning nazorat funksiyasining asosiy vazifasi - kutilayotgan daromad ishlab chiqarish hajmini va tovarlar realizatsiyasini kengaytirishga to'g'ri yo'naltirilishini anglatadi. Masalan, yuk tashish va undan keladigan daromad, foydani bashorat qilish yo'lini aniqlaylik. Bu o'z vaqtida korxonalarning daromad va zararlarini balanslashtirib, kutilgan foydani aniqlash orqali bajariladi. Bunday holatda korxona daromad va harajatlar o'rtaqidagi bog'liqsizlik faqatgina moliyaviy holatlarni emas, materiallar resurslari uchun ham koorektirovkasi vujudga keladi.

Moliyaviy manbalar deganimizda xo'jalik yurituvchi subyektning tasarrufidagi mablag'lari. Iste'mol va zaxira uchun nooziq-ishlab chiqarish obyektlarini ishlab chiqarish, texnik xizmat ko'rsatish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan[4].

Barqaror moliyaviy holatni ta'minlash uchun korxonalar o'zlarining bozordagi mavqeini saqlash va mustahkamlashning turli usullaridan foydalanadilar. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu intilishlar har bir harakatlarning muayyan turlariga tegishli strategiyalarga birlashtirilgan. Masalan, E.A.Utkinning mashhur darsligida bunday harakatlar uchta turdag'i strategiyalarga guruhlangan: passiv omon qolish, faol omon qolish, rivojlanish strategiyasi va yangi va faol strategiya sifatida har xil yondashuvlar o'rtaida "Xitoy devori" yo'qligi ta'kidlangan bo'lsa-da, ulariq tisodiy amaliyotda yuzaga keladigan iqtisodiy muammolar nihal qilishda dastlabki yondashuvlar sifatida qaraladi.

- Passiv omon qolish strategiyasi bandlikni qisqartirish hisobiga barqaror moliyaviy holatga erishish uchun korxonaning harakatlariga bog'liq va ish haqi fondi, to'lovlarini amalga oshirmaslik orqali boshqa odamlarning mablag'laridan

foydalinish va boshqalar, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun mavjud texnologiyalarni saqlab turishda.

- Faol omon qolish strategiyasi, yangi bozor shovqinlarini qidirish, mahsulotlarni yangilash, texnologiyalarni takomillashtirish, zararli yoki rentabellik sohalardan voz kechish va h.k.
- Rivojlanish sezgisi deganda nafaqat ishlab chiqarishning barqaror o'sishi, faoliyatning diversifikatsiyasi, shu jumladan ishlab chiqarishning o'zgarishi va h.k.ga asoslangan biznesning nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlarida ham progressiv o'zgarishlar tushuniladi[6].

Byudjet bilamizki oy, chorak, yil uchun bat afsil moliyaviy reja; yuqori moslashuvchanlik bilan yuqori ma'lumot va muvofiqlashtirish darajasida tuzilgan xarajatlar va daromadlar smetalari. Mavjud sharoitlarga qarab, ushbu rejani tuzatishga ruxsat beriladi.

Byudjetlashtirish esa moliyaviy va moddiy resurslarning harakatini, shuningdek moliyaviy natijalarni bashorat qilish, hisobga olish va boshqarish. Bu ish turlari, biznes yo'nalishlari va tarkibiy bo'linmalar bo'yicha moliyalarni oxirigacha muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Byudjet shunchaki pul hisoboti emas, bu kompaniyaning butun faoliyatini boshqarish mexanizmi. Rag'batlantiruvchi rol uni amalga oshirish, ayniqsa, daromad sohasida. Byudjetni shakllantirish bilan butun biznesni o'rganish va yangi vazifalarni belgilash jarayoni boshlanadi. Byudjet tizimi byudjetdan ajratilgan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan maqsadli foydalinish ustidan tegishli nazoratni ta'minlash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy asoslangan standartlarning mavjudligini talab qiladi. Byudjetni rejalashtirishda menejerlarning samarali qarorlarni o'z vaqtida qabul qilishlari uchun zarur shart sifatida to'g'ri standartlarni ishlab chiqishga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Zamonaviy sharoitda xarajatlarni byudjet asosida rejalashtirish tarkibiy bo'linmalarda, avvalo, tejamkor texnologiyalar, yangi uskunalar, moddiy, yoqilg'i, energetika va mehnat resurslarining tejamkor texnologiyalarini joriy qilishni rag'batlantiradigan xarajatlarning iqtisodiy asoslangan asoslarini yaratishga yo'naltirilgan[5].

Hozirgi kunda moliyaviy menejment maqsadlarining eng muhimlari qaysilar degan savolga, iqtisodchi olimlar tomonidan turli qarashlar mavjud. Ko'plab xorijiy adabiyotlarda korxonalarda moliyaviy menejmentning maqsadlarini quyidagi uch guruhga ajratiladi:

- ✓ Foydani maksimallashtirish va korxona egalarining moliyaviy talablarini qondirish;
- ✓ Moliyaviy barqarorlikni ta'miniash;
- ✓ Mahsulot va xizmatlar realizatsiyasini maksimallashtirish (ya'ni, korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xajmini oshirish).

Xo'jaIik subyektlarida moliyaviy menejmentni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimi bevosita moliyaviy menejerning funksiyalari va amalga oshiradigan vazifalari, bajaradigan ishlariga bog'liq holda tashkil qilinadi. Korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etish jarayoni yoki ularning moliyasini boshqarish tizimi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi yoki operatsiyalar ko'lami, mulchilik shakli va faoliyat turining xilma xilligiga bog'liq holda

shunchalik murakkab tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Albatta, har bir korxonaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unda moliyaviy menejmentning o'rni, roli va tashkil qilish shartlari o'ziga mos holda farqlanadi.

Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etishda xususan, moliyaviy resurslarni tashkil qilish va boshqa manbalar hisobiga moliyalashtirish shartlari, ularni taqsimlash usuli (metodi) va yo'naliishlari, asosan quyidagi jihatlarga bog'liq holda farqlanishi mumkin bo'ladi:

1- Jadval. Moliyaviy menejment tizimini moliyalashtirish shartlari

Xo'jalik-moliyaviy faoliyatining ko'lami yoki xajmi;
--

Korxonalar rivojlanish siklining bosqichlari;

Biznesni yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari va boshqalar.

Korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishda asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir jihat ularning tashkiliyhuquqiy shakllari hisoblanadi. Bizga ma'lumki, korxonalaming xo'jalik faoliyati yoki tadbirkorlik faoliyat ma'lum bir tashkiliyhuquqiy shaklga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Moliyaviy menejmentning ta'minot tizimi va moliyaviy mexanizm


Korxonalar, firma va kompaniyalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etish va moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalarini amalga oshirishda. Mukammal ta'minot tizimining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy menejmentning ta'minot tizimi quyidagiarni o'z ichiga oladi:

1. Tashkiliy;
2. Huquqiy;
3. Uslubiy;
4. Axboriy;
5. Texnikaviy;
6. Dasturiy;
7. Tahliliy;
8. Bashorat (prognoz).


Moliyaviy menejmentda tashkiliy ta'minot tizimi, korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimini tashkil qilish, korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatining alohida yo'naliishlari bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish hamda ushbu qarorlarning ijrosi ta'minlash bo'yicha har bir ichki xizmat bo'limlari va bo'linmalarining javobgarlik darajalarini va vakolatlarini belgilashni nazarda tutadi. Moliyaviy menejmentda moliyaviy vosita deganda, korxonaning har qanday turdag'i shartnomalari tushuniladi, qaysiki buning natijasida bir vaqtning o'zida, biron bir korxonada moliyaviy aktivlarning ko'payishi va boshqa korxonada esa moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelishi tushuniladi. Boshqacha aytganda, qarzdorlik bo'yicha guvohlik beruvchi, sotuvchi sotish jarayonida o'zini moliyalashtirishni ta'minlovchi har qanday hujjatdir.

R.Breyli va S.Mayersning fikricha moliyaviy rejalashtirish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi[2].



4 – rasm. Moliyaviy rejalashtirish jarayoni

Quyidagilar moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:



5 – rasm. Moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifalari

Umuman olganda, moliyaviy rejalarning ko'rsatkichlari davlatning moliyaviy ahvolini tahlil qilish uchun boshlang'ich material hisoblanadi, istiqboldagi (istiqbol uchun) rejalashtirishning informatsion asosi bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy rejalar tizimi moliyaviy resurslar manbalarining (jismoniy va yuridik shaxslar daromadlari) tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarning obyektiv ravishda o'zaro bogliqligi va uzoq muddatli tendentsiyalarini, shuningdek, kelajakda bu tendentsiyalar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillami aniqlashga imkon beradi.

Xulosa va takliflar.

Ko'riniib turibdiki, korxonalarda moliyaviy menejmentning maqsad va vazifalari, bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo'jalik faoliyatini uzlucksiz ravishda yaxshilab va takomillashtirib borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda moliyaviy menejment tizimi bevosita moliyaviy menejerning funksiyalari va amalga oshiradigan vazifalari, bajaradigan ishlariga bog'liq holda tashkil qilinadi. Korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etish jarayoni yoki ularning moliyasini boshqarish tizimi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi yoki operatsiyalar ko'lami, mulchilik shakli va faoliyat turining xilma xilligiga bog'liq holda shunchalik murakkab tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Albatta, har bir korxonaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unda moliyaviy menejmentning o'rni, roli va tashkil qilish shartlari o'ziga mos holda farqlanadi.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E.Raxmataliyev. Moliyaviy menejment. - T. « Barkamol fayz media», 2016.
2. Бочаров В, Леонтьев В. Корпоративные финансы. - СПБ. Питер, 2004.
3. Financial management: theory and practice. Evgene F. Brigham, Michael C. Ehrhardt. South – Western, 2014.
4. Intermediate Financial Management (Finance Titles in the Brigham Family) Evgene F. Brigham, Phillip R. Daves lengage learning 2015.
5. Tojiboyev D. Iqtisodiy nazariya (ikkinchchi kitob) T.SH. 2003.

Utkin E.A. Korxonaning inson resurslarini boshqarishdagi innovatsiyalar: darslik. nafaqa / E.A. Utkin, K.T. Satabaev, R.K. Satabaeva. - M, 2002. Mehnat resurslari. U9 (2P)

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

